

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.I.Nurmatova	
Talabalarda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilinishi	107
D.B.Mahametova	
Use of information technologies in education.....	112
M.Norinov	
Bo'lajak texnik mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini multimedia vositalari asosida bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi.....	115
G.T.Hojikarimova	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	119
X.M.Jo'rayev	
Kimyo o'qituvchilarining o'zini-o'zi rivojlantirish omillari	123
N.B.Odilxo'jazoda	
Kimyo o'qituvchisi kasbiy kompetentligini aniqlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	128
B.T.Tojibayev, S.S.Isokov	
Globalashuv kontekstida – ta'lim	132
D.Q.Oxunova	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalari.....	136
N.E.Yuldasheva	
Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari	140
B.X.Baydjanov, Y.E.Mamatova	
Boshlang'ich ta'limda mediamadaniyat va texnoetikani o'qitish texnologiyasini takomillashtirish.....	144

FALSAFA

Б.С.Ганиев	
Социально-политические факторы повышения предпринимательской культуры в Узбекистане	150
M.D.Pardaeva	
Uchinchi renessans poydevorini yaratishda Navoiy Naqshbandiyona g'oyalarining ahamiyati.....	156
Z.P.Nadirova	
Intuitive cognition as a synergistic process.....	161
X.X.Raxmatova	
Naqshbandiylik – jahoniy ta'limot	165
Z.A.Akhmedova	
Donishning ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish haqidagi fikrlari tahlili.....	170
B.X.Karimov	
Ong muammosining ilmiy – falsafiy va psixologik talqini.....	175
L.M.Karimova	
Jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida ayollarning ijtimoiy mobilligini takomillashtirish mexanizmlari	180
M.M.Gulamova	
Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda "Naqshbandiya Tariqati Nazariyotchisi" ta'limotining ahamiyati.....	185
O.T.Sharipova	
Xojagon tasavvufiy ta'limotida "Olami Kabir" haqida	189
Sh.B.Sattorova	
Mirzo Abdulqodir Bedilning inson va jamiyat haqidagi ta'limotida adolat va tenglik muammosini o'ziga xos tadqiqi.....	194
B.X.Hamdammov	
Boburning insonparvarlik – falsafiy qarashlari.....	200

GLOBALLASHUV KONTEKSIDA – TA'LIM
В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ – ОБРАЗОВАНИЕ
IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION — EDUCATION

Tojibayev Baxromjon Turabayevich¹

¹Namangan muhandislik-texnologiyasi instituti, ijtimoiy fanlar va sport kafedrası PhD, dotsent

Isokov Saydulla Sobirjonovich²

²Namangan to'qimachilik sanoati instituti, jismoniy tarbiya va ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim jarayonini ishlab chiqarish, tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish choralari va jamiyatga tegishli hamda uning ehtiyojlari bilan belgilanadigan ko'nikmalarni ochib berish kabi mulohazalarni yuritilgan. Shuningdek, Umumta'lim, xususan, professional va oliy ta'limning o'zaro aloqasida hosil bo'ladigan milliy madaniyat ustuvor yo'nalishlari haqida bir qator mushohadalar ochib berilgan. Shu o'rinda global ta'limni tashkil etish hamda uni rivojlanishida inson huquqlari, ijtimoiy mas'uliyat va gender tenglik rivojini takomillashtirish asoslari bo'yicha taklif va xulosalar keltirilgan bo'lib, Global ta'lim natijasida kam rivojlangan va qashshoq mamlakatlarning muammolarini aniqlashda, muammolarning kelib chiqish yo'nalishlarini analiz qilishda asosiy fundamental tushunchani berishi borasidagi fikrlar borasida mulohaza yuritildi. Buning natijasida global ta'limning muhim qismi jihatida zarur bilim va tushunchalar va ma'lum ko'nikmalarni rivojlantirish muayyan hodisalarga u yoki bu darajadagi munosabatlarni shakllantirishga yordam berishi hosilasida rezidentlarda ko'proq bilimli, o'ziga ishongan va mas'uliyatli fuqarolarga aylanganligini ifodaladi.

Аннотация

В статье содержатся такие соображения, как производственный процесс высшего образования, меры по поощрению критического мышления, раскрытие навыков, которые актуальны для общества и определяются его потребностями. Также выявлен ряд наблюдений о приоритетных направлениях национальной культуры, формирующихся во взаимодействии общего образования, в частности профессионального и высшего образования. В этом месте представлены предложения и выводы по основам организации глобального образования и совершенствованию прав человека, социальной ответственности и гендерного равенства в его развитии, речь шла об идеях, которые дают основное фундаментальное понимание при анализе направления выхода. В результате этого было выражено, что жители стали более образованными, уверенными в себе и ответственными гражданами, в результате чего развитие необходимых знаний и понятий и определенных навыков, что является важной частью глобального образования, способствует формированию отношения на том или ином уровне к определенным событиям.

Abstract

The article contains considerations such as the production process of higher education, measures to encourage critical thinking, and the development of skills that are relevant to society and determined by its needs. A number of observations about the priority areas of national culture, formed in the interaction of general education, in particular vocational and higher education, have also been identified. This place presents proposals and conclusions on the basics of organizing global education and improving human rights, social responsibility and gender equality in its development, we were talking about ideas that provide basic fundamental understanding when analyzing the direction of exit. As a result of this, it was expressed that residents have become more educated, confident and responsible citizens, as a result of which the development of necessary knowledge and concepts and certain skills, which is an important part of global education, contributes to the formation of attitudes at one level or another towards certain events.

Kalit so'zlar: Global ta'lim, umumta'lim, global taraqqiyot, kognetiv, ijtimoiy harakatchanlik, ijtimoiy muhit, ta'lim konteksi, globallashuv, globallashuv muxoliflari.

Ключевые слова: Глобальное образование, общее образование, глобальное развитие, когнитивное, социальная мобильность, социальная среда, образовательный контекст, глобализация, противники глобализации.

Key words: Global education, general education, global development, cognitive, social mobility, social environment, educational context, globalization, opponents of globalization.

KIRISH

Ta'lim texnologik innovatsiyalar va iqtisodiy o'sish uchun harakatlantiruvchi omil bo'lgan inson kapitalini shakllantirishga muhim sarmoyadir. Rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan, xizmat ko'rsatish bilan bog'liq o'sishni boshdan kechirayotgan O'zbekiston uchun oliy ta'lim muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim bilimlarni ishlab chiqarish, tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish va

jamiyatga tegishli va uning ehtiyojlari bilan belgilanadigan ko'nikmalarni berishdir. Umumta'lim, xususan, professional va oliy ta'lim milliy madaniyat ustuvor yo'nalishlar bilan belgilanadigan yuksak ma'rifiy faoliyatdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Keyingi yillarda O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida talabalar sonini o'sishi haqiqatdan ham juda tez sur'atlarda yuz berdi. Bu jarayon 2016-yilda O'zbekiston hukumati oliy rahbariyatining almashuvi natijasida boshlangan yangi islohotlar ko'lami bilan bevosita bog'liq bo'lib, unda asosan ilgari umumta'lim maktablarida o'quv jarayoni faqat 9-sinfgacha davom etgan va keyin akademik litsey va kasb-hunar kollejlardan birini tanlashga majbur bo'lishgan bo'lsa 2017-yildan boshlab umumta'lim maktablarida o'quv jarayoni 11-sinfgacha davom ettiriladigan bo'ldi. "Maktab ta'limini tubdan yaxshilash va uning sifatini oshirish borasidagi islohotlarni jadal davom ettirmoqdamiz. Ota-onalarni fikrini inobatga olib, yurtimizda 11 yillik ta'limni qayta tikladik. Yangi ta'lim muassasalarini qurish, mavjudlarini qayta ta'mirlashga e'tibor qaratmoqdamiz. Minglab maktablarda elektr energiyasi, ichimlik suvi ta'minoti, isitish tizimi yaxshilandi, oshxona, sport zallari va boshqa zarur binolar barpo etildi" [1]. Natijada kasb-hunar kollejlarda o'quvchilar soni keskin kamayib ketdi, o'quvchi-yoshlar qisman yangi tashkillangan professional ta'lim dargohlarida va umumta'lim maktablarida tahsil ola boshladilar. Oliy ta'lim borasidagi islohotlar oliy ta'lim muassasalarini ko'payishi va ularga akademik mustaqillik berilishi bilan xarakterlandi. Bu boradagi ma'lumotlarni rasmiy statistikamizga tayangan holda so'nggi besh yillikni tahlil qilganimizda ham yaqqol o'sish ko'rsatkichlari ko'zga tashlanadi. Xususan, mamlakatimizda umumta'lim muassasalarining soni 2017/2018-o'quv yilida 9718 ta bo'lgan bo'lsa 2021/2022-o'quv yilida 10289 tani tashkil etdi [6]. Bu boradagi o'sish esa 5.5%ni tashkil etdi. 2022-yilda 442 ming nafardan ortiq o'quvchilar umumta'lim maktablarini bitirishga [6].

2021/2022-o'quv yilida mamlakatimiz kollejlarda 95216 nafar o'quvchilar tahsil olishmoqda [6]. Respublikamiz oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar soni esa 2020/2021-o'quv yilidayoq yarim milliondan (571521) oshgan edi [6].

Global ta'lim — bu zamonaviy odamlarning tobora globallashib borayotgan dunyoda yashashi va o'zaro munosabatda bo'lishidan kelib chiqadigan ta'lim istiqbolidir. Bu ta'lim uchun o'quvchilarga global, o'zaro bog'langan jamiyatda o'z nuqtai nazari va rolini ko'rsatish va baham ko'rish, shuningdek, umumiy ijtimoiy, ekologik, siyosiy va iqtisodiy muammolarning murakkab munosabatlarini tushunish va muhokama qilish imkoniyati va malakalarini beradi. Global ta'lim birdamlik, tenglik, inklyuzivlik va hamkorlikka asoslangan faol ta'lim jarayonidir. Bu odamlarga global barqaror rivojlanish muammolaridan xabardor bo'lish imkonini beradi, shuningdek, fuqarolik tashabbuslarida faolroq ishtirok etish va barqaror rivojlanishga asoslangan yanada oqilona va o'ylangan qarorlarni qabul qilishga yordam beradi.

Global ta'lim odamlarga kam rivojlangan va qashshoq mamlakatlarning muammolarini tushunishga yordam beradi, shuningdek, bu muammolar har birimizga qanday ta'sir qilishini va bu davlatlarga global ta'sirni tushunishga yordam beradi. Bu global ta'limning muhim qismi bo'lib, zarur bilim va tushunchalarni beradi, ma'lum ko'nikmalarni rivojlantiradi va muayyan hodisalarga u yoki bu darajadagi munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi, natijada rezidentlar ko'proq bilimli, o'ziga ishongan va mas'uliyatli fuqarolarga aylanadi.

Global ta'lim qashshoqlikni tugatish va barqaror rivojlanishni yo'lga qo'yishga o'zining muhim hissasini qo'shmoqda, chunki bu ta'lim inson huquqlari, ijtimoiy mas'uliyat va gender tengligiga asoslanadi. Shuningdek, u sayyoradagi odamlarning turmush darajasidagi farqlarni tushunishni ta'minlaydi va bu farqlarni qanday kamaytirish kerakligi haqidagi savolga javob izlashga majbur qiladi, shu bilan insonning ijtimoiy hayotga salbiy ta'sir ko'rsatadigan faoliyatdagi ishtirokini qayta baholashga hissa qo'shadi. Rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy, siyosiy va ekologik rivojlanish, bu taraqqiyotga hissa qo'shishi barobarida tabaqalashuvni xam tizimlaydi, qatlamlar o'rtasidagi tafovutni zam chuqurlashtiradigan omil bo'lib ham qolmoqda.

Global taraqqiyotda sotsial mobillik yo'nalishi bo'yicha ta'lim, barqaror rivojlanish, tinchlik va mojarolarning oldini olish va madaniyatlararo ta'lim bilan ham uzviy bog'liqdir. Global ta'limning maqsadi — jahonning har bir aholisiga nafaqat global rivojlanish bilan bog'liq muammolarni, shuningdek, ularning mamlakatlarga va har bir insonning shaxsiy hayotiga bevosita ta'sirini tan olish va tushunish, balki o'z imkoniyatlarini amalga oshirish imkoniyatini berishdir [2]. Global ta'limning alal-xusus maqsadi sayyoramizda adolatli va barqaror tinchlik o'rnatish uchun har

birimizga xos bo'lgan huquq va majburiyatlarni umumlashtirish orqali ta'limni unifikatsiya qilishdir. Shuningdek, globallashuv jahon hamjamiyatida bir chiziqlikdan ko'p chiziqlik tomon yetaklaydigan ziddiyatli jarayon. Optimistik prognoz globallashuv jarayonining muqarrarliligi, obyektiv ravishda aniqlanganligi va shuning uchun ijobiy yo'nalishga ega ekanligidan kelib chiqadi. Globallashuv muxoliflari ayrim mamlakatlarning bu jarayonda ishtirok etishni istamasligidan ta'kidlaydilar va uni inkor etishga majbur qiladilar. Ko'plab farqli baholanishlarga qaramay, globallashuv hozirgi zamon haqiqati bo'lib, u tezlashib, davlat chegaralarini yo'q qilmoqda, vaqt va masofalarni qisqartirmoqda, yangicha voqeliklar va realliklarni yuzaga keltirmoqda U yangi konturlarga ega bo'lib, zamonaviy sivilizatsiya rivojlanishining yetakchi omiliga aylandi.

Ta'lim mamlakatga o'z fuqarolari o'rtasida fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyatni singdirishga, salohiyatni rivojlantirishga, milliy integratsiyani rivojlantirishga va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi. Jahondagi har bir davlat o'zining yosh avlodi, jamiyat va millat farovonligi va rivojlanishi uchun ta'lim tizimini yo'lga qo'yishga intiladi.

Globallashuv sharoitidagi ta'limning yana bir muhim aspekti — bu ijtimoiy harakatchanlikni shakllantirishning obyektiv ijtimoiy muhitida shaxslar va ijtimoiy guruhlarining mavjudligi, shakllanishi va faoliyati uchun moddiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy sharoitlar yig'indisida global harakatchanlik mexanizmlari maqbullashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ijtimoiy muhitga siyosat, iqtisod, notijorat va jamoat sohalari, shuningdek, keng ma'noda ijtimoiy ong va madaniyat, ya'ni nafaqat san'at va adabiyot, balki shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar me'yorlari, ijtimoiy xulq-atvor stereotiplari va boshqalar kiradi. Ijtimoiylashgan har bir shaxs muhiti uning bevosita ijtimoiy muhitini, ya'ni shaxs mansub bo'lgan oila, kasbiy, ta'lim va boshqa ijtimoiy guruhlarini ham o'z ichiga oladi.

Globallashuv kontekstida ta'lim ijtimoiy muhitni tarkibiy qismi sifatida muhim ahamiyatga ega, u makro va mikro ko'lamda inson atrof-muhitini o'rab turadi. Makro ko'lamdagi ijtimoiy muhit qadriyatlar-an'analar, sotsial institutlar va guruhlar, sotsial qatlamlar, jamoatchilik fikri va madaniyatini qamrab olsa, mikro ko'lamdagi ijtimoiy mikro shaxsning – oila, mehnat, ijtimoiylashuv konteksi, ta'lim kabi sotsial jarayonlar qamrab oladi. Shaxsning kognitiv taraqqiyot iyerarxiyasida ijtimoiy muhitning murakkab roli shundaki, aynan oila, ta'lim muassasalari, jamoat, ta'lim muassasalari o'zaro ta'sirida ijtimoiy liftni tashkil etadigan "mexanizmlari"dir. Shu bilan birga, ijtimoiy muhit, birinchi navbatda, turli guruhlar, jamoalar, rasmiy va norasmiy institutlarda birlashgan odamlar, ular bilan har bir shaxs o'ziga xos munosabatlarda, murakkab va xilma-xil aloqa va o'zaro ta'sir tizimida. Ijtimoiy muhit faoliyat jarayonida shaxsni shunchaki "shakllantirmaydi". Insonni o'rab turgan ijtimoiy muhit, shaxsga ta'sir qiladi, uni yo'naltiradi, rag'batlantiradi, shuningdek shaxsni ijtimoiy xulq-atvor va faoliyatning muayyan yo'nalishlariga moslashtiradi, tarbiyalaydi, tartibga soladi, ijtimoiy nazoratga bo'ysunadi, o'ziga jalb qiladi, tegishli xulq-atvor modellari bilan boyitadi, undaydi va tartiblaydi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Demak, ijtimoiy muhit, bizningcha, shaxsga kuchli ta'sir ko'rsatadi, shaxs kamolotini oziqlantiruvchi, uning ijtimoiy me'yorlari, qadriyatlari, rollari va hokazolarni singdiruvchi manba bo'lib, shu bilan birga obyektiv omil vazifasini bajaradi. Yoshlarni kognitiv taraqqiyotida global muhitni ta'sirining asosiy xususiyati bu uning ijtimoiy harakatchanligini shakllantirish va rivojlantirishdir. Islohotlar ko'plab yo'naltiruvchi vositalarni, ta'lim tizimlarini, madaniy, ijtimoiy standartlarni, qadriyat yo'nalishlarini, ichki motivatsiyalarni, faoliyat va xulq-atvor me'yorlarini o'zgartirishga olib keladi, bu muqarrar ravishda insonning qadriyat va malaka fazilatlariga bo'lgan talablarning o'zgarishiga olib keladi. Va bu doimiy siklik jarayon, chunki shaxsning mobilligi doimo uning jamiyat, tashqi dunyo bilan faol o'zaro ta'sirida sodir bo'ladi.

XXI-asr eski ijtimoiy tartibot, stereotiplar zamon talabiga javob bera olmay, yangicha ijtimoiy tartibotlar hali mustahkam shakllanmay turib jamiyat hayotini tubdan o'zgartirib yuboradigan turli ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy buhronlar bilan boshlandi. Bunday jarayonlar avvalgi qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar tizimiga keskin o'zgarishlar yasadi. Natijada yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimga o'tish jarayonida jamiyatda anomiya holati, ya'ni ijtimoiy boshboshdoqchiliklarni vujudga keltirdi. Natijada anomiya deyarli birxillashgan qiyofalarni qarama-qarshi subyektlarga aylantirib, fragmentladi va jamiyat uchun destruktiv ahamiyat kasb etdi va ijtimoiy qadriyatlarni zaiflashtirishi oqibatida ijtimoiy inqirozlar yuz berdi. Biroq, haqiqiy ijtimoiy o'zgarishlar va islohotlarni sotsial harakatchanlik bilan bir chiziqli modelga o'tkazish qiyin. Global miqyosda ijtimoiy statikadan (turg'unlik) dinamik jarayonlarga o'tish jarayoni borasida jamiyatda transformatsiya jarayonlarini o'rgangan tadqiqotchi

PEDAGOGIKA

A. Prjevorskiy eski tuzilmalarni tubdan isloh qilmasdan, odatdagi ijtimoiy amaliyotlardan va an'analardan voz kechmasdan jiddiy ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish imkonsizligini ta'kidlaydi [3]. Bunday o'tish jarayonlarida dastlabki davrlarda ijtimoiy harakatchanlik aholining aksariyat qismida pasayuvchan xususiyatiga ega bo'ladi. Biroq, bir muncha vaqt o'tgach, jamiyat yangi institutlarni, an'analarni shakllantiradi, iqtisodiyotning yangi holatiga mos keladigan yangi amaliyotlar vujudga keladi va ehtimoliy salbiy tendensiyani ijobiysiga bilan almashtiriladi.

XULOSA

Ta'limning vazifasi mamlakatning mahsuldorligini va global muhitda raqobatbardoshligini oshirishdan iborat [4]. Ta'lim tizimi o'quvchilarning fanlar bo'yicha nafaqat chuqur bilimga ega bo'lishini, balki ularni real dunyo bilan yuzma-yuz kelish uchun qurollantiradigan yaxlit idrok va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlashi kerak. Har bir bosqichda o'z chegaralarini kengaytirish, hamkorlik qilish va o'rganish uchun platformalar va ustunlikka intilayotganlar uchun tan olinishi kerak. Oliy ta'lim professor-o'qituvchilari va ma'murlari uchun universitetlar siyosati xalqaro va milliy talabalarimizga insoniyatni kelajakdagi global fuqarolikka o'rgatish uchun innovatsion istiqbollarni o'rganishga yordam berishi mumkin. Global hamkorlik ijtimoiy me'yor va umumbashariy fuqarolik tushunchasi globallashtirilgan dunyoning asosi bo'lgan kelajak sari ta'lim. Universitetlar, garchi bozor kuchlari tomonidan bosim o'tkazilsa-da, dunyoning umumiy farovonligi asosiy e'tibor ekanligiga ishonch hosil qilish uchun ta'lim siyosatini ishlab chiqishda yetakchilik qilishi mumkin. Faqatgina oliy ta'limda o'qiyotganlarning ongli harakatlari universitetlarning yaxshi hayot va'dasidagi rolini ta'minlashi mumkin. Shunday qilib, globallashtirilgan dunyoda ta'lim muammolarini hal qilish uchun yangi kun tartibi va o'quv dasturlari masalalarini shakllantirish zarurati tug'iladi. Global jarayonlar butun dunyo bo'ylab ta'lim amaliyotiga katta ta'sir o'tkazmoqda.

Ta'lim sohasidagi ko'plab o'zgarishlar globallashtiruvchi tufayli ro'y berayotgani haqiqat bo'lsa-da, bunday ta'sirlarning dinamikasi, murakkabligi va mexanizmi keyingi davrlarda o'rganila boshlandi. Martin Karnoy globallashtiruvchi ta'lim tizimiga bevosita va bilvosita qanday ta'sir qilganini tahlil qiladi va globallashtiruvchi so'nggi paytlarda quyidagi asosiy ta'lim o'zgarishlarini keltirib chiqarganini umumlashtiradi [5]:

1. Globallashtiruvchi mehnatni tashkil qilish va odamlar bajaradigan mehnatga ta'sir ko'rsatdi va ta'sir qilishda davom etmoqda. Odatda bu ish yuqori mahorat talab qiladi.
2. Bunday talablar hukumatlarni oliy ta'limni kengaytirishga va o'rta maktabdan keyingi ta'limga tayyorlanayotgan o'rta maktab bitiruvchilari sonini ko'paytirishga undaydi.
3. Aksariyat hukumatlar ko'proq ma'lumotli ishchi kuchini ishlab chiqarish uchun ta'limga sarflanadigan xarajatlarni oshirish uchun ko'proq bosim ostida.
4. Ta'lim sifati xalqaro miqyosda tobora ko'proq solishtirilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 56 bet. Akulich
2. . M.M. Obrazovaniye v usloviyax globalizatsii // Universitetskoye upravleniye: praktika i analiz – 2005. – № 5. – S. 50–57.
3. Przheworski. A. Some Problems in the Study of Transition to Democracy // Transitions From Authoritarian Rule / Ed.by G. O'Donnel, P. Schmitter and L. Whitehead. The John Hopkins University Press, 1991. P. 47–64.
4. Bates, R. Administering the global trap: the roles of educational leaders. Educational Management & Administration, 2002. 30(2), p. 139.
5. Carnoy. M. Globalization and educational reform, what planners need to know UNESCO, Paris: International Institute for Educational Planning. Published in 1999 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization 7 place de Fontenoy. F 75352 Paris 07 SP pp.15-17.
6. stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2